

BOBOXUROSON OTA QISHLOG'INING TARIXIY SHAKLLANISHI VA MA'NAVIY MEROSI

Sobirjonova Mohlaroy

*Andijon davlat universiteti, Kimyo va biologiya fakulteti, Kimyo yo'nalishi 1-bosqich
talabasi (103-guruh)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloqning tarixiy shakllanish jarayoni, dastlabki aholi joylashuvi, mahallalarning vujudga kelishi hamda Boboxuroson ota shaxsiga oid og'zaki tarixiy rivoyatlar yoritilgan. Tadqiqot asosan dala tadqiqoti usuli asosida, mahalliy aholidan olingan og'zaki ma'lumotlar va xotiralarga tayangan holda olib borilgan. Shuningdek, qishloq nomining kelib chiqishi, Boboxuroson ota ziyoratgohining tarixiy va ma'naviy ahamiyati, "Chechak piri" nomi bilan bog'liq e'tiqodlar tahlil qilingan. Maqola mahalliy tarixni o'rganish va uni kelajak avlodlarga yetkazishda og'zaki tarix manbalarining muhimligini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: qishloq tarixi, Boboxuroson ota, og'zaki tarix, dala tadqiqoti, ziyoratgoh, mahalla, ma'naviy meros, Chechak piri

Kirish Men qishlog'imizning tarixiy o'tmishini o'rganishdan asosiy maqsadim qishlog'imiz tarixini chuqurroq bilib olish hamda ushbu ma'lumotlarni kelajak avlodlarga yetkazib berishdir. Shu yo'lda olib borgan izlanishlarimda menga bobomning hikoyalari katta yordam berdi. Bobom Aminjonov Sobirjon o'z navbatida Toshturg'un hoji, Sayidulayev, Sattarov Dehqonbuva, Po'latov Komiljon kabi bobolarimizdan hamda qishlog'imizga ziyoratga kelgan mehmonlardan eshitgan hikoyalarini bizga so'zlab bergan ekan.

Asosiy qism Qishloq hududining o'rtasidan Aravon soyi oqib o'tgan bo'lib, soyning har ikki tomoni dastlab quruq va chakalakzor yerlardan iborat bo'lgan. Dastlab bu hududlarda ko'chmanchi chorvador qabilalar yashagan. Suvga boy, yerlari serhosil bo'lgani sababli vaqt o'tishi bilan bu qabilalar o'troq hayot tarziga o'ta boshlagan. Aholi asta sekin ko'payib, doimiy yashash joylari paydo bo'lgan va natijada qishloq shakllangan.

Bu yerlarda yashagan aholi urug'-aymoqlar bo'yicha serhosil va ser suv hududlarni egallab, alohida-alohida mahallalar tashkil qilgan. Rivoyatlarga ko'ra, bundan besh-olti yuz yil avval Eronning Xuroson shahridan (ba'zi manbalarda Afg'onistondan) islom dinini targ'ib qilish maqsadida kelgan bir shaxs o'zini Xurosonlik ota deb tanishtirgan.

Ungacha qishloq hududi soyning narigi tomoni va bu tomoni ma'nosida "soyning u yuzi" va "soyning bu yuzi" deb atalgan. Keyinchalik Xuroson ota yashagan joy "Boboxuroson ota

qishlog'i" nomi bilan atala boshlagan va bu nom qishloq nomiga aylanib qolgan, degan rivoyatlar mavjud.

Qishloqda dastlab tashkil topgan mahallalar quyidagilar bo'lgan: Ulyuz, Teraktagi, Qo'rg'oncha, Yo'li qishlog'i va Cho'yanboshi. Teraktagi mahallasi shunday nomlanishiga sabab mahalla o'rtasida uchta juda katta qayrag'och daraxti bo'lib, ularning har birining tanasini 6–7 kishining qulochi ham yetmagan. Ushbu daraxtlarni kim ekani haqida esa aniq ma'lumotlar saqlanib qolmagan.

Aholining ko'payishi natijasida keyingi yillarda yangi mahallalar tashkil etilgan. Jumladan, 1927–1934-yillarda Chekaqo'rg'on, Norkitepa, Yuqori Toshloq; 1950–1955-yillarda Dam va Quyi Toshloq; 1985–1990-yillar davomida esa Yangi qishloq, Sag'anoq va Tosh yo'li mahallalari barpo etilgan. Natijada qishloqda ikki ta mahalla fuqarolari yig'ini shakllangan.

Birinchisi Boboxuroson mahalla fuqarolari yig'ini bo'lib, unga Teraktagi, Tosh yo'li, Chekaqo'rg'on, Ulyuz va Cho'yanboshi mahallalari birlashtirilgan. Ikkinchisi esa Qo'rg'oncha mahalla fuqarolari yig'ini bo'lib, unga Qo'rg'oncha, Lo'li mahallasi, Yuqori va Pastki Toshloq hamda Dam mahallalari birlashtirilgan. 1998–2002-yillardan boshlab mahalla tizimi o'zini o'zi boshqarish shakliga o'tkazilgan.

Qishloq markazida taxminan 20–25 gektar maydonni egallagan katta "Boboxuroson ota" qabristoni va ziyoratgohi joylashgan. Qabristonning o'rtasida, kun chiqish tomoni Ulug'tog'ga qaragan holda Boboxuroson ota maqbarasi mavjud.

Ushbu ziyoratgohga qo'shni tuman va viloyatlardan, hatto qo'shni davlatlardan ham ziyoratchilar tashrif buyurib turishadi.

Ziyoratchilar ko'pincha: Boboxuroson ota kim bo'lgan, qayerdan va qachon kelgan, nima sababdan "Chechak piri" deb atalgan, degan savollar bilan qiziqish bildiradilar. Ana shu savollarga javob topish maqsadida qishloq mo'ysafitlaridan biri Oribjon domla Mo'tabarov Marhamatlik tarixchi olim Xasanjon Mahsumga murojaat qilgan.

Xasanjon Mahsum bir necha muddat izlanish olib borgach, Boboxuroson ota haqida aniq yozma manba topa olmaganini aytgan. Biroq og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan rivoyatlarni bayon qilgan. Ushbu rivoyatlarga ko'ra, Boboxuroson ota haqidagi ma'lumotlar (tug'ilgan yili, asl ismi, kelib chiqishi, vafot etgan vaqti) ko'k toshga yozilib, kichik maqbaradan 30–35 metr narida, 3–3,5 metr chuqurlikda ko'milgan, degan gaplar bor. Yana bir rivoyatga ko'ra, ushbu ko'k tosh katta maqbara ichidagi qayrag'och daraxti tagiga ko'milgan.

Boboxuroson ota qabristoni juda qadimiy bo'lib, hatto Mingtepadan ham oldin mavjud bo'lgan, ming yillar avval bu yerga ko'chmanchi qabilalar dafn etilgan, deyiladi. Vaqt o'tishi bilan quruq yerlardan foydalanish kengayib, yaylovlar qisqarib, chorvador ko'chmanchi qabilalar asta-sekin bu hududlardan siqilib chiqqan.

Taxminlarga ko‘ra, Boboxuroson ota ushbu qishloqqa taxminan 1300–1400 yillar atrofida kelgan bo‘lishi mumkin.

2013-yilning yoz kunlarida qabristonga uch kishi ziyoratga kelgan. Ular o‘zlarini Qo‘qondan kelganini aytib, ulardan biri o‘zini Alijon eshon deb tanishtirgan. Yoshi taxminan 45–50 yoshlar atrofida bo‘lib, qolgan ikki kishi uning farzandlari ekan. Suhbat davomida u Boboxuroson otaning asl ismi Muhammad Alijon Xurosonlik ekanini, Eronning Xuroson shahridan chiqqan diniy targ‘ibotchilar avlodidan bo‘lishi mumkinligini aytib o‘tgan.

Rivoyatlarga ko‘ra, Boboxuroson ota qabristonning qibla tomonidagi eski darvozadan kirganda chap tomondagi do‘nglikda joylashgan kichik hujrada yashagan. Vafotidan so‘ng jasadi hujradan 30–35 metr yuqoriroqda, yo‘l bo‘yiga dafn etilgan va keyinchalik shu joyda kichik maqbara barpo qilingan. Dehqonbuva Sattarov va Isoqjon hoji Xajayevlar ham Boboxuroson ota jasadi kichik maqbarada ekanini tasdiqlab kelishgan.

Endi nima sababdan Boboxuroson ota “Chechak piri” deb atalganiga to‘xtalsak, rivoyatlarga ko‘ra, Alloh taolo ayrim suyuqli bandalariga shifo berish kabi maxsus fazilatlarini ato etgan. Xuroson ota ham shunday xislatga ega bo‘lgan. Qadimda odamlar orasida chechak, qizamiq, turli toshmalar va teri kasalliklari ko‘p uchragan. Boboxuroson otaga kelgan bemorlarga u kishi yaraga qarab tupug‘ini yoki tuproqni surib qo‘ygan, shundan so‘ng kasalliklar tez fursatda yo‘qolgan, yaralar bitgan.

Shu sababli xalq orasida u zot “Chechaklar piri” deb atalgan. Vaqt o‘tishi bilan “Chechak piri Xurosonlik ota” iborasi mahalliy shevada “Chechak piri Boboxuroson ota” shakliga aylangan.

Ziyoratga kelgan kishilar albatta duoyi takbir bilan shayx qabrini ziyorat qilib, imkon qadar nazr berishgan va shu yerning o‘zida taom tayyorlab, tanovul qilishgan. Bu kabi ma’lumotlarni qishloq oqsoqollari Toshlonbuva Zokirov, Dehqonbuva Sattarov va Komiljon tog‘a To‘lanovlar ko‘p bor aytib berishgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, qishlog‘imizning tarixiy o‘tmishi uzoq asrlarga borib taqaladi. Ushbu hudud dastlab ko‘chmanchi chorvador qabilalar yashagan maskan bo‘lib, suv manbalarining ko‘pligi va yerlarning serhosilligi sababli asta-sekin o‘troq aholi yashaydigan qishloqqa aylangan. Vaqt o‘tishi bilan aholi soni ko‘payib, turli mahallalar shakllangan va qishloq bugungi taraqqiyot bosqichiga yetib kelgan. Boboxuroson ota nomi qishloq tarixida muhim o‘rin egallaydi. U zotning kelib chiqishi, hayoti va faoliyati haqida aniq yozma manbalar saqlanib qolmagan bo‘lsa-da, xalq orasida og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan rivoyatlar uning qanchalik e‘zozlangan shaxs bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Boboxuroson

otaning shifo berish bilan bog‘liq fazilatlari sababli “Chechak piri” nomi bilan tanilgani xalq e’tiqodida chuqur ildiz otgan.

Bugungi kunda Boboxuroson ota qabristoni va ziyoratgohi nafaqat qishloq aholisi, balki qo‘shni hududlar va hatto xorijiy davlatlardan kelgan ziyoratchilar uchun ham muqaddas maskan hisoblanadi. Ushbu tarixiy va ma’naviy merosni o‘rganish, uni asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning muhim vazifamizdir. Qishloq tarixini chuqur anglash orqali biz o‘z ildizlarimizni bilamiz, milliy qadriyatlarimizni yanada mustahkamlaymiz.

Manbalar:

1. Aminjonov Sobirjon. Boboxuroson ota va qishloq tarixiga oid og‘zaki rivoyatlar: dala tadqiqoti materiallari / yozib oluvchi: Sobirjonova M. — Andijon viloyati, Marhamat tumani, Boboxuroson qishlog‘i, 2026. — Og‘zaki manba (intervyu, xotiralar).